

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 214 (1275), 2024-yil 23-oktabr, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIYLASHTIRISH, INVESTITSIYA VA EKSPORTNI KO'PAYTIRISH MUHIM

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-oktabr kuni mahalliy lashtirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Iqtisodiyotni harakatlantiruvchi bu yo'nalishlarda katta ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yetti yilda mamlakatimizga 78 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar kelgan. Davlat-xususiy sheriklik bo'yicha qonun qabul qilinib, mingdan ziyod loyihalar boshlangan. 1 ming 800 turdagi yangi mahsulotni o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Shu bilan birga, hali salohiyat katta. Yig'ilishda mazkur yo'nalishlarning har biri tahlil qilinib, qo'shimcha imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi.

Bugungi kunda barcha tarmoqlarda 140 milliard dollarlik 366 ta yirik loyiha amalga oshirilyapti. Investitsiya loyihalari doirasida yiliga 15 milliard dollarlik uskuna, xomashyo va qurilish materiallari olib kelinayapti. Shularning har birida mahalliy ulushni ko'paytirish mumkinligi ta'kidlandi.

Yurtimizdagi yirik tarmoqlarda ham shunday imkoniyatlar bor. Masalan, energetika tarmog'ini 2030-yilgacha rivojlantirish dasturiga muvofiq, 36 milliard

dollarlik 164 ta quvvat yaratiladi. Shundan 88 tasi davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etiladi.

Tog'-kon sanoati bo'yicha ham 1 milliard 230 million dollarlik dastur qabul qilingan. Sohadagi yirik kombinatlarga mahalliy korxonalar o'zaro manfaatli bog'langan.

Avtosanoatda ham ushbu yo'nalishda ishga solinmagan imkoniyatlar ko'p. Birgina qo'shni davlatlarda avtomobil ehtiyoj qismlariga yillik talab 1 milliard dollarni tashkil qiladi.

Mahalliy lashtirish jarayonida narx bo'yicha ham, sifat bo'yicha ham raqobatdosh mahsulot chiqarib, eksportni ko'paytirishga alohida e'tibor qaratish zarurligi aytib o'tildi.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha aniq loyihalar shakllantirib, imkoniyatlarni natijaga aylantirish zarurligi ta'kidlandi. Sanoat tarmoqlari bilan hududlar o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish, davlat xaridlarida mahalliy mahsulot va xizmatlar ulushini oshirish bo'yicha takliflar bildirildi.

Yaqinda davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida 30 milliard dollarlik investitsiya loyihalari tasdiqlandi. Bunda har bir sohaning imkoniyatlari ochib berilgan. Jumladan, transport bo'yicha 10 milliard dollar, ijtimoiy sohalarida 6 milliard dollar, kommunal tarmoqda 5 milliard dollarlik rejalarni ko'zda tutilgan.

Bu loyihalarga investorlarni jalb qilish, mablag'larni samarali yo'naltirish vazifalari qayd etildi.

Yig'ilishda xorijiy investitsiyalar oqimi va kelgusi rejalarni ham ko'rib chiqildi.

Joriy yilning to'qqiz oyida 23 milliard 660 million dollar xorijiy sarmoya kirib kelgan. Shuningdek, 4 milliard 600 million dollarlik 120 ta yirik quvvat ishga tushgan.

Yil yakunigacha bu sur'at davom etadi. Shu tariqa 2017-2024-yillarda jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy qiymati 100 milliard dollardan oshishi kutilmoqda.

Yig'ilishda mutasaddilar belgilangan vazifalarni bajarish rejalari yuzasidan axborot berdi.

O'ZA

O'ZBEKISTON PREZIDENTI BRIKS MAMLAKATLARI SAMMITIDA ISHTIROK ETADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 23-24-oktabr kunlari BRIKS birlashmasi davlatlarining sammitida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Qozon shahrida bo'ladi.

Davlatimiz rahbari Rossiya tomoni raisligida o'tkaziladigan "BRICS plus" formatidagi yalpi sessiyada nutq so'zlaydi. Uchrashuv kun tartibidan inklyuziv va barqaror taraqqiyotni ta'minlash maqsadida xalqaro hamkorlikni

kengaytirish masalalari o'rin olgan. Shuningdek, global siyosatning dolzarb jihatlarini muhokama qilinadi.

Bundan tashqari, tashrif dasturida qator ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

BRICS birlashmasi 2006-yilda tashkil etilgan. Hozirda Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika Respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari, Eron, Misr va Efiopiya uning a'zolaridir.

O'ZA

O'ZBEKISTON - BRIKS: BARQAROR TARAQQIYOT, YANGI ISHLAB CHIQRARISH VA SAVDO-LOGISTIKA ZANJIRLARINI YARATISHGA QARATILGAN HAMKORLIK

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-24-oktabr kunlari Rossiya raisligida Qozon shahrida bo'lib o'tadigan BRIKS sammiti doirasidagi tadbirlarda ishtirok etadi.



Ushbu tuzilma 2006-yil iyun oyida Sankt-Peterburg iqtisodiy forumi doirasida Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoy

iqtisodiyot vazirlari ishtirokida tashkil etilgan. Tashkilotni tuzish Rossiya tomoni tashabbusi bilan boshlangan.

Rossiya, Braziliya, Xitoy tashqi ishlar vazirlari va Hindiston mudofaa vaziri ishtirokidagi o'sha paytdagi BRIKning birinchi yig'ilishi 2006-yil 20-sentabrda Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 61-sessiyasi doirasida bo'lib o'tgan edi.

2010-yil 12-noyabrda Seulda bo'lib o'tgan G20 sammitida Janubiy Afrika Respublikasi BRIKga qo'shilish istagini bildirdi. Janubiy Afrikaning qo'shilishi bilan tuzilma nomi BRIKS sifatida qayta tashkil etildi.

Davomi 2-betda

O'TTIZ BESH YILLIK O'ZLIK MAQOMI

bizni yagona xalq sifatida birlashtirib keladi

O'zgarayotgan bugungi dunyoda milliy o'zlikni saqlab qolish harakati tobora hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Bu yo'lda tahlikalar ko'p, ildizi tarixdan quvvatlanib turuvchi anglamlar qadri muhim. Milliy o'zlikning ustunlaridan biri — har bir millatning ona tili ekani ham ayon haqiqat. Shu bois, millatlar, milliy davlatchiligiga ega mamlakatlar o'z tilini asrab-avaylash, boyitish, muomalada keng qo'llashga intiladi. O'zbek tili ham ana shu kakkashon ichindadir.

BAYRAMNING O'ZGACHA DASTURI

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 35 yilligi bayramini keng nishonladik. Ushbu kun munosabati bilan davlatimiz rahbari xalqimizga bayram tabrigini yo'lladi.



Prezidentimiz tabrigida o'zbek tilining mavqeini oshirish borasida bajarilgan ishlar haqli ravishda e'tirof etildi. Ona tilimizning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning jahon miqyosida nufuzi va jozibadorligini oshirish yo'lida oldimizda turgan vazifalar ham ko'rsatib o'tildi. Tabrikda, jumladan,

"Raqqamli makonda davlat tilini keng joriy etishga mo'ljallangan ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, o'zbek tilini axborot texnologiyalari sohasidagi yirik dasturlar tili qatoriga kiritish choralarini ko'rish ham dolzarb vazifamiz bo'lib qoladi", deyildi.

Davomi 6-betda

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!


27-OKTABR — OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI VA MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI SAYLOVI KUNI



Mazkur maqolalar O'zbekiston Ekologik partiyasi hamda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA — DEMOKRATIK SAYLOVLARNING MUSTAHKAM HUQUQIY POYDEVORI



Mamlakatimiz hayotidagi muhim siyosiy voqea — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy vakillik organlariga saylovlar kuni tobora yaqinlashmoqda. Yurtimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash yo'lidagi keng ko'lamli islohot va yangilanishlar, jumladan, O'zbekistonning ko'pmillatli xalqi irodasini ro'yogga chiqarishning asosiy vositasi va demokratik shakli hisoblangan saylovlar o'tkazilishida 2023-yil 30-apreldagi referendumda yakdillik bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mustahkam huquqiy poydevor vazifasini o'taydi.

Bosh qonunimizda mustahkamlangan asosiy konstitutsiyaviy yangiliklar mazmun-mohiyatida, birinchi navbatda, konstitutsiyaviy rivojlanishimizning bosh yo'nalishlari — inson huquq va erkinliklari, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalari sadoqatni namoyon qilish, insonparvar demokratik davlat, ochiq va adolatli jamiyat barpo etish, fuqarolarning munosib hayot kechirishi, O'zbekistonning farovon va gullab-yashnashini ta'minlash kabi oliy qadriyatlar singdirilgan norma va prinsiplar uyg'unligi aks etgan.

Davomi 2-betda

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON SAVDO AYLANMASI YAQIN YILLARDA 10 MILLIARD DOLLARGA YETKAZILADI

Samarqandda O'zbekiston — Qozog'iston to'rtinchi hududlararo forumi o'tkazildi.

Forum ishida ikki davlat hukumati a'zolari, hududlar rahbarlari va tadbirkorlar ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov hamda Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri O.Bektenov

davlatlarimiz rahbarlarining samimiy munosabatlari va oqilona tashqi siyosatlarini tufayli keyingi yillarda mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va o'zaro hurmat tamoyillariga asoslangan strategik

shiriklik va ittifoqchilik munosabatlari jadal rivojlanib, barcha sohalarida ijobiy o'sish kuzatilayotganini qayd etdi.

So'nggi 7 yil ichida O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida o'zaro savdo aylanmasi deyarli 2,5 barobar o'sib, o'tgan yili 4,4 milliard dollarni tashkil qildi. Bugungi kunda mamlakatimizda Qozog'iston kapitali ishtirokida 1100 ga

yaqin, Qozog'istonda esa O'zbekiston kapitali ishtirokida 3600 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Mavjud zaxiralardan samarali foydalangan holda yaqin yillarda o'zaro savdo hajmini 10 milliard dollarga yetkazish imkoniyati bor.

Davomi 2-betda

2024-yil 23-oktabr, 214-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O'ZBEKISTON – BRIKS: BARQAROR TARAQQIYOT, YANGI ISHLAB CHIQRARISH VA SAVDO-LOGISTIKA ZANJIRLARINI YARATISHGA QARATILGAN HAMKORLIK

Boshlanishi 1-betda

2023-yil avgustda bo'lib o'tgan sammitda Eron, Saudiya Arabistoni, Misr, Argentina, Efiopiya va BAA BRIKSga to'laqonli a'zo sifatida qo'shilish uchun taklif qilingan edi. 2024-yil yanvarda ushbu davlatlardan to'rttasi — Misr, Eron, BAA va Efiopiya tashkilotga rasman qo'shildi.

Tashkilotga a'zo davlatlar nufuzli xalqaro tuzilmalar — BMT, G20, G77 guruhi, Jahon savdo tashkiloti, Qo'shilmaslik harakati, shuningdek, qator yirik mintaqaviy birlashmalarining nufuzli ishtirokchilari hisoblanadi.

BRIKS hamkorlari o'rtasidagi munosabatlar BMT Nizomi, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari, shuningdek, tenglik, ochiqlik, pragmatizm, birdamlik, qo'shilmaslik va uchinchi tomonlarga betaraflik tamoyillari asosida qurilgan.

Birlashma mexanizmi, ta'kidlanganidek, tinchlik, xavfsizlik, taraqqiyot va

asoslanadi. U a'zo mamlakatlarning ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarini ularning ko'p tomonlama formatdagi o'zaro ta'siri bilan to'ldirishni, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, birlashma va forumlarda, birinchi navbatda, Jahon savdo tashkilotida muvofiqdoshlikni ta'minlashni nazarda tutadi.

BRIKS mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar formatlari tizimi oliy darajadagi yillik rejalashtirilgan uchrashuvlarni o'z ichiga oladi. BRIKSga raislik taqvim yil davomida ishtirokchi davlatlar tomonidan rotatsiya asosida amalga oshiriladi. Barcha qarorlar konsensus asosida qabul qilinadi.

O'zbekiston uchun BRIKS inklyuziv hamkorlik va barqaror rivojlanish kun tartibini ilgari surish yo'lida izlanayotgan platforma hisoblanadi.

2015-yil 9-iyul kuni O'zbekiston Rossiya tomoni raisligida Ufa shahrida bo'lib o'tgan SHHT va BRIKSga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlarining uchrashuvida ishtirok etdi. Yig'ilishda tashkilotga a'zo 9 davlat rahbarlari qatnashgan.

va munisipalitetlar forumi, shuningdek, BRIKS va "BRIKS plus" mamlakatlarida xavfsizlik masalalarini nazorat qiluvchi yuqori darajali uchrashuvlarda ishtirok etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 24-iyun kuni bo'lib o'tgan "BRIKS plus" formatidagi Global taraqqiyot masalalari bo'yicha yuqori darajadagi muloqotda so'zlagan nutqida "Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan inqirozli holatlarni yengib o'tish maqsadida savdodagi to'siqlarni bartaraf etish, yangi ishlab chiqarish va savdo-logistika zanjirlarini yaratish, sanoat kooperatsiyasi bo'yicha loyihalarga investitsiyalar jalb etish va infratuzilmani modernizatsiya qilish, texnologiyalar transferi va innovatsiyalarni joriy etish, sun'iy intellekt, raqamlashtirish, biotexnologiyalar, vaktsinalar ishlab chiqarish sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha muvofiqdoshlashtirilgan chora-tadbirlarni qabul qilish muhim ahamiyatga ega", deya ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, Qo'shma loyiha va tashabbuslarni ilgari surish maqsadida "BRIKS plus" ishlab mahsulot doiralari forumini yo'lga qo'yishni taklif qildi.

"Biz Barqaror rivojlanish maqsadlariga birgalikda erishish uchun keng ko'lami xalqaro sheriklikka, shu jumladan, "Janub — Janub" formatidagi hamkorlikka ochiqmiz va bu yo'lga sodiqmiz", dedi O'zbekiston yetakchisi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, davlatimiz rahbarining bo'ljak BRIKS sammitidagi ishtiroki xalqaro aloqalarni yanada kengaytirish va O'zbekistonning jahon iqtisodiy aloqalariga integratsiyalashuviga, mamlakatimizning o'zaro manfaatli hamkorlikka yo'naltirilgan ishonchli sherik sifatidagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

"Dunyo" AA

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON SAVDO AYLANMASI YAQIN YILLARDA 10 MILLIARD DOLLARGA YETKAZILADI

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shu yil avgust oyida Qozog'istonga amalga oshirilgan davlat tashrifi doirasida umumiy qiymati 7 milliard dollarlik shartnoma va bitimlar imzolangan mamuniyat bilan qayd etilib, bu hujjatlarining ijrosini ta'minlashda hukumatlar va mintaqalar rahbarlari o'zaro hamkorlikda ish olib borishi zarurligi ta'kidlandi.

Tomonlar O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi uzoq muddatli sheriklikni kengaytirishda hududlararo aloqalar haqiqiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qilayotganini e'tirof etdi. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mang'istau viloyati bilan, Toshkent viloyati Turkiston viloyati bilan, Navoiy viloyati Qizilo'rda viloyati bilan to'g'ridan to'g'ri va yaqin aloqalar o'rnatgan.

Chegaradosh bo'lmagan hududlar ham o'zaro aloqalarni mustahkamlab, savdo-sotiq va sanoat kooperatsiya aloqalarini izchil rivojlantirib kelmoqda. Xususan, Toshkent shahri tadbirkorlari Chimkent shahrida maishiy texnika va infuzion preparatlar ishlab chiqarishni boshladi. Samarqanddagi "Azia Metall" kompaniyasi esa Taraz shahrida po'lat mahsulotini ishlab chiqarish zavodini qurmoqda. Ostonadagi "BI Group" xolding kompaniyasi Toshkent shahrida yirik qurilish loyihalarni amalga oshirayotgan bo'lsa, "PTC Holding" kompaniyasi Toshkent viloyatida yirik logistika markazini barpo etmoqda.

Hukumat rahbarlari ikki mamlakat mintaqalari va tadbirkorlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqalarni rivojlantirishga qulay sharoit yaratish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini bildirdilar. Davlatlarimiz o'rtasida madaniy-gumanitar sohada aloqalar ham yildan yilga kengayib borayotgani mamuniyat bilan qayd etildi. Bu borada doimiy ravishda O'zbekiston va Qozog'istonda madaniyat kunlari, kino, teatr, ilmiy va ijodiy jamoalar, ziyolilar forumlari, o'quv ko'rgazmalari, muzey ekspozitsiyalari ekspozitsiyalari o'tkazilmoqda. Joriy yilning o'zida Ostona shahrida O'zbekiston kino va san'ati kunlari o'tkazildi. Xiva shahrida bo'lib o'tgan "Lazgi" ikkinchi xalqaro raqs festivalida Qozog'istonning "Kazina" raqs ansambli birinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Ostona shahrida bo'lib o'tgan beshinchi "Jahon ko'chmanchilar o'yinlari"da O'zbekiston jamoasi muvaffaqiyatli qatnashib, to'rtinchi o'rinni egalladi.

Tomonlar turizm sohasi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligini qayd etib, sayyohlik xizmatlarini ko'rsatish va infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish zarurligini ta'kidladi.

Bosh vazirlar O'zbekiston va Qozog'istonning barcha viloyatlari hamda shaharlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga har tomonlama yordam berishga tayyorligini tasdiqladi.

Forumda hududlararo aloqalarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish yuzasidan muhim taklif va tashabbuslar bildirildi. Davlat rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan oliy darajadagi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Bir qator vazirliklar va mintaqalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, birgalikda loyihalarni amalga oshirish bo'yicha hujjatlar imzolandi.

Hududlararo forum doirasida O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov hamda Qozog'iston Respublikasi savdo va integratsiya vaziri Arman Shakkaliyev boshchiligidagi mintaqalar rahbarlari va 200 dan ortiq tadbirkorlar, yirik kompaniyalar vakillari ishtirokida O'zbekiston

va Qozog'iston ishlab mahsulotlari uchrashuvi o'tkazildi.

Uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasidagi sheriklik aloqalarini mintaqalar darajada ham rivojlantirish muhimligi qayd etildi. Bunda qishloq xo'jaligi va agrosanoat tarmog'i, to'qimachilik mahsulotlari va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish, tajriba va texnologiyalar almashuvi istiqbolli yo'nalishlar sifatida belgilangan. Sirdaryo viloyatida o'zaro hamkorlikda "Markaziy Osiyo" sanoat kooperatsiyasi xalqaro markazi faoliyatini yo'lga qo'yilayotgani tadbirkorlarga bu borada katta imkoniyatlar ochishi alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, to'rtinchi forum oldidan o'zbek va qozog'iston tadbirkorlarining ikki mamlakat hamkor hududlarida bo'lib, o'zaro tajriba almashgani natijalari yuqori baholandi.

Uchrashuvda ikki davlat hududlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri hamkorlikni mustahkamlash, qo'shma loyihalarni amalga oshirish va tayyor mahsulot yetkazib berish hajmini ko'paytirish yuzasidan muzokaralar olib borildi va 30 dan ortiq shartnoma imzolandi. Bundan tashqari, ikki davlat tadbirkorlari o'zaro hamkorlik bo'yicha kelishuvlarga erishdi.

— Korxonamiz tomonidan qozog'istonlik hamkorlarimizga polipropilen qoplar yetkazib beramiz, bu borada yaqin aloqalarni yo'lga qo'yganmiz, — deydi Farg'ona viloyatidagi "Universal savdo savovati" MCHJ rahbari Akmalxon Abdullajlov. — Bugungi uchrashuvda polimer mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha 1 million dollarlik memorandum imzoladik. Bu loyiha, birinchi navbatda, ekologik nuqtayi nazaridan juda foydali, ya'ni polimer mahsulotlarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, xomashyoning ko'pligi va qayta ishlash natijasida yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

G'olib HASANOV,
O'ZA muxbiri

BRIKS mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar formatlari tizimi oliy darajadagi yillik rejalashtirilgan uchrashuvlarni o'z ichiga oladi. BRIKSga raislik taqvim yil davomida ishtirokchi davlatlar tomonidan rotatsiya asosida amalga oshiriladi. Barcha qarorlar konsensus asosida qabul qilinadi.

hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. BRIKSning asosiy maqsadi ishtirokchi davlatlarning iqtisodiy va texnologik salohiyatini sezilarli darajada mustahkamlash yo'lida samarali aloqalar uchun sharoit yaratishdir.

BRIKS doirasida Ishlab mahsulotlar kengashi va BRIKS Taraqqiyot banki faoliyat yuritadi. Iqtisodiy yo'lida tuzilma mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik 2025-yilgacha bo'lgan Iqtisodiy sheriklik strategiyasiga

O'zbekiston Prezidenti 2022-yil 24-iyun kuni "BRIKS plus" formatidagi Global taraqqiyot masalalari bo'yicha yuqori darajadagi muloqotda ishtirok etdi. Xitoy tomoni raisligida o'tgan ushbu onlayn forumda dunyoning 18 mamlakatidan davlat va hukumat rahbarlari qatnashdi.

Rossiyaning BRIKSga joriy raisligi doirasida O'zbekiston Yoshlar sammiti, BRIKS sport o'yinlari, IX yuridik forumi, X parlament forumi, turdosh shaharlar



Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, ko'pmillatli xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish uchun qabul qilingan qat'iy va ishonchli qarori o'z ifodasini topgan. Masalan, demokratiyaning bosh talabi bo'lgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi Konstitutsiyamizning 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidagina amalga oshiriladi", deb belgilab qo'yilgan.

Ushbu muhim konstitutsiyaviy prinsip Konstitutsiyamizning 36-moddasida "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek, davlat organlarining faoliyatini ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi" degan norma bilan rivojlantirilish, ushbu huquqdan foydalanish shakllari belgilangan.

Mazkur konstitutsiyaviy normadagi "davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish", "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqi"ga oid qoidalar esa davlat hokimiyati organlarini saylovlar orqali shakllantirish, saylash va saylanish huquqlarini anglatadi.

Konstitutsiyamizga "Saylov tizimi" deb nomlangan alohida bob kiritilgan

Akmal RAHMONOV, Konstitutsiyaviy sud sudyasi, yuridik fanlar nomzodi



DEMOKRATIYANING BOSH TALABI BO'LGAN XALQ HOKIMIYATCHILIGI PRINSIPI KONSTITUTSIYAMIZNING 7-MODDASIDA "XALQ DAVLAT HOKIMIYATINING BIRDAN-BIR MANBAIDIR. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT HOKIMIYATI XALQ MANFAATLARINI KO'ZLAB VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI HAMDA UNING ASOSIDA QABUL QILINGAN QONUNLAR VAKOLAT BERGAN ORGANLAR TOMONIDANGINA AMALGA OSHIRILADI", DEB BELGILAB QO'YILGAN.

mazkur muhim konstitutsiyaviy prinsip va normalarning saylov bilan bog'liq jihatlarini xalqaro huquq andazalari asosida amalga oshirishning mamlakatimizga xos bo'lgan modelni shakllantirgan.

O'zbekiston milliy saylov tizimi hamda saylovlarning demokratik tashkil etilishi va o'tkazilishi bilan bog'liq konstitutsiyaviy asoslar quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi.

Birinchiidan, Asosiy qonunning 128-moddasida O'zbekiston fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga ega ekani, har bir saylovchi bir ovozga egaligi, ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanishi belgilangan eng ilg'or xalqaro standartlarga mos keladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin

emasligi, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra, ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkinligi, boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmasligiga oid konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati ham saylov tizimining kafolatlanishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishiga, O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egaligiga oid muhim konstitutsiyaviy qoidalar mustahkamlangani yurtimizdagi barcha darajali saylovlar, birinchi navbatda,

ushbu konstitutsiyaviy negizlarga bevosita tayangan holda tashkil etilishini bildiradi. Konstitutsiyamizning 15-moddasida qayd etilganidek, "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi".

Uchinchiidan, saylov tegishincha saylanadigan organlarning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — oktabr oyi uchinchi o'n kulligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Konstitutsiyada

qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi — majoritar va proporsional asosda o'tkazish belgilab qo'yildi.

Zero, Markaziy saylov komissiyasining saylov komissiyalari tizimiga boshchilik qilishi, faoliyatini doimiy asosda amalga oshirishi hamda O'zbekiston

SAYLOV QONUNCHILIGI VA AMALIYOTI MAMLAKATIMIZDAGI DEMOKRATIK ISLOHOTLARNING MUHIM TARKIBIY QISMI SIFATIDA O'TGAN YILLARDA O'ZBEKISTONDA XALQARO HUQUQ ANDAZALARI VA TALABLARIGA, ILG'OR CHET EL YURIDIK TAJRIBASIGA VA MILLIY-TARIXIY AN'ANALARIMIZGA HAMDA KONSTITUTSIYAMIZGA MOS SAYLOV QONUNCHILIGINING ZAMONAVIY DEMOKRATIK TIZIMI YARATILGANING YAQQOL NAMUNASIDIR.



nazarda tutilgan muddatidan ilgari saylov o'tkazish hollari bundan mustasno degan norma davlat organlari saylovlar orqali vaqti-vaqti bilan yangilanib turilishini qat'iy belgilab beradi.

Bundan tashqari, 2023-yil 18-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun mamlakatimiz milliy saylov tizimidagi izchil islohotlarning mantiqiy davomi uchun huquqiy asosni yanada mustahkamladi. Yangi

To'rtinchiidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 129-moddasi yana bir muhim talabni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlagan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlariga saylovlarni, shuningdek, referendumni tashkil etish va o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan faoliyatining asosiy prinsiplari mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkorlik va adolatlilikdan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuzilishining o'zi ham ulkan ahamiyatga ega.

Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga amal qilishi mamlakatimizda saylovlarning qonuniy hamda barcha demokratik talabga mos bo'lishining qo'shimcha konstitutsiyaviy kafolatidir.

Bularning barchasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitutsiya, Saylov kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan saylov huquqlari davlat muhofazasida ekanini anglatadi.

Saylov qonunchiligi va amaliyoti mamlakatimizdagi demokratik islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida o'tgan yillarda O'zbekistonda xalqaro huquq andazalari va talablariga, ilg'or chet el yuridik tajribasiga va milliy-tarixiy an'analari hamda Konstitutsiyamizga mos saylov qonunchiligining zamonaviy demokratik tizimi yaratilganining yaqqol namunasi.

Mamlakatimizdagi har bir saylov jamiyatimiz uchun o'ziga xos sinov bo'ladi. Bunday sinovlar hech kimdan kam emasligimizni, yurtimizda demokratik davlat barpo etish jarayoni ortga qaytmagligi, kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish yo'lida oliy maqsad sari salmoqli qadamlar qo'yayotganimizni yana bir bor namoyon etadi. Buning uchun yangi tahrirdagi Konstitutsiya — yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalq farovonligini yanada oshirish, davlat va fuqarolik jamiyati jadal rivojlanishi yo'lida o'tkaziladigan demokratik saylovlarning mustahkam huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

BIZNING NOMZODLARIMIZ MAMLAKATIMIZ BARCHA HUDUDLARIDA BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISHNI MAQSAD QILGAN



Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yerlarni va ichimlik suv manbalarini asrash, mavjud ekologik muammolarga yechim topish umummilliy ahamiyatga molik masalalar sirasiga kiradi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturida yurtimizdagi har bir hudud hamda har bir fuqaro uchun zarur va ahamiyatli bo'lgan muhim masalalar o'rin olgan. Mamlakatimiz bo'yab o'tkazilayotgan saylovoldi tadbirlarida Ekopartiya tomonidan ilgari surilayotgan bir qator tashabbus va takliflar saylovchilar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinmoqda.



Saylovoldi uchrashuvlari savol-javoblarga boy tarzda, saylovchilarning faolligida o'tayotgani aholining O'zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturi va partiyadan ko'rsatilgan nomzodlarga befarq emasiligidan darak beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida "Tabiat uchun birlashaylik!" shiori ostida Ellikqal'a tumanida o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvida so'zga chiqqan partiya faollari Saylovoldi dasturidagi **Orolbo'yi mintaqasining ekologik holatini yaxshilash, aholiga qulay yashash sharoitini yaratish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatishga** qaratilgan taklif va tashabbuslarni atroflicha tushuntirdi.

Mamlakatning iqlim "yuki" monitoringini va iqlim hisobini yuritish mexanizmlarini joriy etish, iqlim o'zgarishlariga chidamli yangi o'simlik navlarini va chorva zotlarini yaratishni rag'batlantirish, tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ekotizimdagi yo'qotish va zararlarning o'rni ni qoplash uchun maxsus jamg'arma tashkil etish kabi tashabbuslar alohida qayd etildi.

Aybek AMINOV,

2-Qoraqalpog'iston Respublikasi saylov okrugining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod:

Orolbo'yi hududida xalqaro moliya institutlarining bioxilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishini yumshatish, cho'llanishning oldini olishga qaratilgan loyiha va dasturlarni keng jalb etish orqali ushbu hududdagi o'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish va ko'paytirish partiyamiz uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Orolbo'yi mintaqasida joylashgan **Qizilqum cho'li hududida sahra mo'ssimliklar ekish** orqali qum bo'ronlari ko'tarilishining oldini olish va yaylovlar degradatsiyasini to'xtatishimiz mumkin.

Saylovchilar tomonidan ijobiy baholanayotgan — **ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish** taklifi shunisi bilan ahamiyatli, biz yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni himoya qilishga erisha olamiz.



Andijon viloyati. Saylovchilar O'zbekiston Ekologik partiyasidan Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengash deputatligiga nomzodlar bilan o'tkazilgan uchrashuvda partiyamiz Saylovoldi dasturida hamda ko'rsatilgan nomzodlar dasturining kelgusi besh yillikdagi ustuvor vazifalari keng muhokama qilindi. O'zbekiston Ekologik partiyasining Saylovoldi dasturida respublikada chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini hamda chiqindilarni qayta ishlash, ekologik xavfsiz tarzda utilitatsiya qilishni takomillashtirish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, sohaga tadbirkorlik subyektlarini faol jalb etish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga doir tashabbuslari ham o'rin olganligiga alohida e'tibor qarattildi.

Navro'zbek YUSUPOV,

9-Andijon viloyati saylov okrugining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod:

Saylovoldi dasturimizda sanoatda energiyatejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali energiya sarfini 50 foizga qisqartirish, 2030-yilgacha energiya balansida ekologik toza

va qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini ikki karra oshirish kabi g'oyalarni o'z ichiga olgan. Misol uchun, Register atrofida qozonmoqda. Chunki viloyat aholi zich joylashgan hudud bo'lganligi uchun bu masalalar juda muhim ahamiyatga ega.

Uchrashuv davomida saylovchilar tomonidan atrof-muhitning maishiy chiqindilar bilan ifloslanishiga chek qo'yish yuzasidan takliflar bildirildi. Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash, ikkilamchi resurs sifatida foydalanish borasida hali muayyan muammolar ham mavjud, bugun qattiq maishiy chiqindilarning bor-yo'g'i 4-5 foizi qayta ishlamoqda.

Saylovoldi dasturimizda chiqindini xonadonlarning o'zida saralab olib chiqishni rag'batlantirish orqali aholi punktlarida qayta ishlanadigan chiqindilarni avtomatlashtirilgan tartibda qabul qilib oladigan qurilmalarni o'rnatish, maishiy chiqindilarni qayta ishlash va ulardan biogaz, bioko'mir ishlab chiqarish, polietilen, poliamid tarkibli qadoqlash mahsulotlari, bir martalik ishlatiladigan plastik idishlardan foydalanishdan bosqichma-bosqich voz kechish, barcha savdo maskanlarida plastik, bir martalik qoplar hamda shishalarni qabul qilish punktlarini yaratish bo'yicha aniq takliflar borligi saylovchilarga manzur bo'ldi.

Samarqand viloyati. Qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahrida partiya Saylovoldi dasturidagi vazifalarni keng ommaga yetkazish va targ'ib qilish yuzasidan saylovoldi ommaviy tadbiri o'tkazildi. Mazkur tadbirlarda partiyadan Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga ko'rsatilgan nomzodlar, shuningdek, oliy o'quv yurtlari o'qituvchi va talabari, ekologiya sohasidagi tashkilotlar vakillari, ekofoallar, volontyorlar hamda mahalliy aholidan iborat saylovchilar ishtirok etdi.

Ommaviy tadbirida partiya raisi Abdushukur Hamzayev ishtirokchilarni partiyamiz Saylovoldi dasturida ilgari surilgan g'oyalari bilan tanishtirib, barchani joriy yilning 27-oktabr kuni bo'lib o'tadigan saylovlarda faol ishtirok etishga chaqirdi. Partiyamiz Saylovoldi dasturida

xalqimizning, farzandlarimizning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqlarini ro'yobga chiqarishni bosh maqsad sifatida qo'ymoqda.

Partiyamiz 2030-yilga qadar yirik shaharlarda yo'lovchilarning velosipedda harakatlanish ulushini 20 foizga yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Misol uchun, Register atrofida maydonda skuter, mini elektrobular harakatlanaadi. Shovqinsiz, atrofga zararsiz, hamma uchun qulay. Shunday muhitga butun shahrimiz bo'yab erishsak qanday yaxshi! O'zbekiston Ekologik partiyasining maqsadi ham ana shunga qaratilgan.

Toshkent shahri. O'zbekiston Ekologik partiyasining shaharlarda bino va ko'p kvartirali uylar qurilishini majburiy tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish mexanizmlarini qonunda aniq belgilash, daraxtzorlar mavjud bo'lgan yer maydonlarini qurilish maqsadlarida realizatsiya qilinishini qonun bilan taqislash, 10 yoshdan katta daraxtlarni ko'chirib o'tkazishga butunlay cheklov qo'yish kabi takliflari poytaxtlik saylovchilar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda.

Shahar hududidagi har bir daraxt taqdiri uchun qayg'urish hamda yashil maydonlarni ko'paytirish bugun jiddiy muammo bo'lib turgan atmosfera ifloslanishiga qarshi kurashdagi eng maqbul chora ekani qayd etildi.

Akmal RASULOV,

75-Toshkent shahar okrugining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod:

Shaharlarimizda yashil maydonlar va daraxt toбора kamayib ketayotgani, bu esa jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'layotganini ko'rib turibmiz. Partiyamizning shaharlarda bino va ko'p kvartirali uylar qurilishini majburiy tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish mexanizmlarini qonunda aniq belgilash taklifi, ayniqsa, Toshkent shahri uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, saylovchilarga manzur bo'lmoqda.

Toshkent shahri uchun eng dolzarb ekologik muammolardan biri bu havo ifloslanishidir.

KALQ DEMOKRATIK PARTIYASI G'OYA VA TASHABBUSLARI FAOL QO'LLAB-QUVVATLANMOQDA



Barchamiz yirik siyosiy jarayon — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga saylovlar ostonasida turibmiz. Yangi O'zbekistonda saylovlar ilk bor yangicha, aralash saylov tizimida bo'lib o'tadi.



Markaziy saylov komissiyasi saylov kampaniyasini e'lon qilishi bilan Xalq demokratik partiyasi jarayonga qizg'in kirishdi. Mamlakatimizdagi barcha saylovlarda munosib qatnashib kelayotgan, 700 mingdan ortiq a'zoga ega partiyamiz saylov kampaniyasining ilk kunlaridan saylovchilar bilan faol muloqot olib bormoqda.

Targ'ibot tadbirlari respublikamizning barcha hududlarida, aholining keng qatlamida tizimli asosda olib borilmoqda.

Xalq demokratik partiyasi o'zining saylov strategiyasi asosida uyma-uy yurib, 1 milliondan ortiq xonadonga kirib chiqishni, har bir saylovchiga partiya g'oyalarni yetkazishni, ularning taklif-mulohazalarini olishni maqsad qilgan. Bu borada 3500 ga yaqin yig'it-qiz va faollardan iborat volontyorlar guruhining ko'magi katta bo'lmoqda. Ular boshlang'ich partiya tashkilotlari bilan birgalikda barcha hududlarda partiya Saylovoldi dasturi hamda deputatlikka nomzodlar haqidagi bosma materiallarni saylovchilarga yetkazmoqda.

Partiya faollari hamda partiyadan ko'rsatilgan nomzodlar hududlarda saylovchilar bilan yuzma-yuz uchrashuvlar, ochiq muloqotlar tashkil qilmoqda.

Qoraqalpog'istondagi samimiy uchrashuv

Faol muloqotlardan biri Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida tashkil etildi. Nukus davlat pedagogika instituti filialida ko'tarinki ruhdagi o'lgan uchrashuvda talaba yoshlar bilan ochiq suhbat bo'ldi. Partiyamizning Saylovoldi dasturi hamda yoshlarga taalluqli takliflar haqida atroflicha ma'lumot va fikrlar bildirildi. O'zlariga daxldor tashabbuslar bilan batafsil tanishgan yoshlar Xalq demokratik partiyasini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi.

Shumatur AMANBAYEV,

Mustaqil izlanuvchi:

Menga partiyamizning suv resurslariga bog'liq takliflari ma'qul keldi. Chunki suv hayotiy masala. U bilan bog'liq har qanday taklifni ham, tashabbusni ham qo'llab-quvvatlaymiz.

Suv resurslarini bozor tamoyillari asosida baholash, ularning iqtisodiy qiymatini aniqlash va suvdan foydalanish uchun to'lovlarini joriy etish muhim. Bu suv resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantiradi.

Shuningdek, suv xo'jaligini moliyalashtirish uchun xalqaro grantlar va kreditlardan foydalanish zarur. Bu suv resurslarini muhofaza qilish va boshqarishni ta'minlaydi.

Bir maydonda bir maqsad sari

Ochiq osmon ostida o'tgan Surxondaryodagi ommaviy tadbirida minglab saylovchilar

yig'ildi. Partiya rahbari va faollari tomonidan Saylovoldi dasturidan o'rin olgan g'oya va tashabbuslarning mazmun-mohiyati, ular nimaga xizmat qilishi saylovchilarga sodda va xalqchil tilda tushuntirib berildi. Bunday shakldagi ochiq muloqot orqali saylovchilar partiyamizning muhim takliflari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Robiya ABDURAHMONOVA,

O'qituvchi:

Uch nafar farzandim bor. Ochig'ini aytсам, men bunday saylov bilan bog'liq ommaviy tadbirida birinchi marta qatnashyapman. Partiyamizning dasturidagi takliflarni eshitdik. Shaxsan menga onalarning barcha parvarishlashiga sarflangan vaqtini to'liq ish stajiga qo'shish kerak, degan g'oya juda yoqdi.

Bu taklifning amalga oshishi, ko'pchilik ayollar, onalarni behad mamnun qiladi. Chunki onalar farzandi uchun, kerak bo'lsa, o'zidan ham kechadi, umrini ularga bag'ishlaydi. Kun kelib ularning davlat va jamiyatga foydasi tegsa, bu ota-ona mehnatining samarasi hisoblanadi.

Mazkur taklif onalarni e'zozlashga, onalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan, ularning fidokorliklarini qadrlashga xizmat qiladi deb hisoblayman.

Zukumor XIDIROVA,

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi deputatligiga nomzod:

Xalq demokratik partiyasining Saylovoldi dasturidagi asosiy g'oyalari, tashabbuslar haqida hayotiy misollar bilan ma'lumot berildi. Partiyamizning asosiy maqsadi jamiyatda ijtimoiy tenglik va adolat bo'lsin, har bir insonning huquq va manfaatlari himoya qilinsin, degan ezgu g'oyalarga tayangan.

Saylovoldi dasturimizga yordamga muhtoj oilalarning farzandlari uchun davlat bog'chalariga har oy to'lanadigan ota-onalar to'lovidan imtiyozlar berish taklifi kiritilgani, ayniqsa, onalarni mamnun qildi. Agar bunday oilalarga to'lovda yengillik berilsa, birinchi navbatda, mehnat qilib, barqaror daromad topish, oilasi sharoitini izga solish bo'yicha kengroq imkoniyatga ega bo'ladi. Yana bir muhim jihati, bolalar nazoratsiz qolmaydi, ta'lim-tarbiyasi ham bo'sh bo'lmaydi.

Shuning uchun ham partiyamizning ayni taklifni jamiyatimiz uchun juda o'rinni, hayotiy zarur bo'lgan taklif deb bilaman.

Elektorat vakillari bilan yonma-yon

Nizomiy nomdagi Toshkent davlat pedagogika universitetidagi uchrashuv mazmunan yangicha yondashuv va keng qamrovda tashkil etildi. Xalq demokratik partiyasi yetakchilari va faollari poytaxtimizdagi maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan

o'qituvchilar, tarbiyachi-pedagoglar, murabbiylar bilan uchrashdi.

Ta'kidlanganidek, ta'lim davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim asosidir. Eng bebaho boylik hisoblangan yosh avlod manfaatini ta'minlash uchun ushbu sohaga ustuvor e'tibor qarash lozim. Zero, eng istiqbolli sarmoya ta'limga yo'naltirilgan sarmoyadir.

Tadbir davomida partiya yoshlarning sifatli ta'lim olishi tarafdori ekani alohida qayd etildi. Yurtimizdagi har bir bola hayotida va jamiyatda o'rin topadigan shaxs sifatida shakllanishi uchun ta'limning barcha bosqichida teng imkoniyatlar yaratilishi kerakligi aytili.

O'z navbatida, yig'ilganlar ham partiyamiz dasturidan o'rin olgan taklif-tashabbuslarni qo'llab-quvvatlab fikr bildirdi.

Nargiza AHMEDOVA,

O'qituvchi:

Uchrashuvda Xalq demokratik partiyasining Saylovoldi dasturida ijtimoiy

islohotlarni yangi bosqichga chiqarish, jumladan, ta'lim tizimida huquq va imkoniyatlar tengligini ta'minlash g'oyasi haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'ldik.

Misol uchun, shaxsan menga "Salomatlikni mustahkamlashga" ijtimoiy loyihasini keng amalga oshirish tashabbusi ma'qul keldi. Haqiqatan, bolalar doimiy tibbiy nazoratda bo'lishi, sog'lom ovqatlanishi ularning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Farzandlarimizning zamonaviy talablariga javob beradigan o'qish va o'qitish muhitida ta'lim olishi, o'z vaqtida tibbiy nazoratda bo'lishi uchun ham salomatlikni mustahkamlashga ixtisoslashgan maktablar kerak.

Men partiyamizning bu kabi xalqchil takliflarini qo'llab-quvvatlayman.

Dasturimiz namanganliklarga ham manzur

Namangan shahridagi ommaviy tadbir davomida barcha qatlam uchun birdek manfaatli yangi Saylovoldi dasturi ishtirokchilarga keng tanishtirildi. Partiyamizning ijtimoiy soha bilan bog'liq takliflari hayotiyotligi, davlatning ijtimoiy islohotchi sifatida o'rni va rolini saqlab qolishga urg'u berayotgani namanganlik saylovchilar tomonidan faol qo'llab-quvvatlandi.

Sayyora XADJIMIRZAYEVA,

Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashi deputatligiga nomzod:

Bilasiz, Namangan rivojlangan sanoat ishlab chiqarish quvvatlariga ega. Shuning uchun partiya dasturidagi ayollar mehnatiga ixtisoslashtirilgan ishlab chiqaruvchi tashkilotlar qoshida oilaviy bog'chalar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali korxonada ishlovchi ayollarga sharoit yaratish taklifini to'g'ri deb bilaman.

Yurtimizda ayollarga e'tibor ortib bormoqda, ularning bilim olishi, kasb egallashi rag'batlantirilmoqda. Ayol kishining ham kasb-hunarini bo'lib, mehnat qilishi oilaning moddiy farovonligiga hissa qo'shadi, farzandlar kelajagi uchun yanada yaxshi sharoit ta'minlanadi.

Shu ma'noda, partiya ilgari surayotgan tashabbus bog'cha yoshidagi farzandi bor ayollarga ham ishlab imkonini ko'paytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Bir so'z bilan aytganda, partiyamiz va nomzodlarimiz saylovoldi targ'ibot tadbirlarini respublikamizning barcha hududlarida ko'tarinki ruhdagi o'tkazmoqda.

"Ijtimoiy davlat uchun" shiori bilan saylovlarda ishtirok etayotgan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasiga va uning nomzodlariga ovoz bering!

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi
Axborot xizmati



O'ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI VA
UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!



O'ZBEKISTON XALQ DEMOKRATIK PARTIYASI VA
UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

KORRUPSIYA

Bugunning gapi

ga oid jinoyatchilik

KAMAYMOQDA



Qobul TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining
Bujet va iqtisodiy islohotlar
masalalari qo'mitasi raisi
o'rinbosari

Korrupsiyaga qarshi kurash O'zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgurd. Sohaga oid konseptual ahmiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar so'zimiz isbotidir. Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ahamiyati katta bo'ldi.

Mamlakat taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlarini o'zida aks ettirgan ushbu hujjatda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishida korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Davlatimiz rahbarining jamiyatni "halollik vakolatini" bilan e'lon qilish haqidagi fikrlari bu boradagi ishlarini yangi bosqichga olib chiqishga asos bo'lib xizmat qildi.

Sohada normativ-huquqiy bazani tizimli ravishda takomillashtirib borish chorasi ko'rdi. 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solib, unda "korrupsiya", "korrupsiyaga oid huquqbuzarlik", "manfaatlar to'qnashuvi"

kabi asosiy tushunchalarga izoh berish bilan bir qatorda, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari ham belgilab berildi.

Shuningdek, qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, vakolatli organlar tizimi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va aholining mazkur sohadagi ishtiroki, korrupsiyaning oldini olish, jazo muqarrarligi va bu borada xalqaro hamkorlikni ta'minlash kabi choralar mustahkamlab qo'yildi.

Qonunda belgilangan chora-tadbirlar samarali amalga oshirilishi uchun 2020-yil 29-iyunda Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmon bilan maxsus davlat organi — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib, bu boradagi davlat siyosatining institutsional asoslari takomillashtirildi.

Agentlik faoliyatining huquqiy asoslari, vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilashda xalqaro normalarni ilgari surgan



Davlat organlarining tizimli va bosqichma-bosqich maqbullashtirilishi hamda ixchamlashtirilishi korrupsiyaga qarshi kurashning yana bir muhim jihati. 2021-yil 3-aprelda Prezidentimiz davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining shtat birliklari sonini qisqartirish to'g'risidagi qarorni imzoladi. Unga muvofiq, davlat organlari xodimlarining soni 15 foizgacha maqbullashtirildi.

holda xorijiy tajriba atroflicha o'rganildi. Uning eng muvofiq jihatlari mazkur farmonda to'laqonli aks ettirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tashkil etildi. 2017-2018-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha birinchi davlat dasturi qabul qilinib, uning ijrosi doirasida aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Sohadagi islohotlarni davom ettirgan holda Prezidentimizning 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan 2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha navbatdagi davlat dasturi tasdiqlandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi sohadagi keyingi qadamlardan biri sifatida belgilandi.

Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarning asosida davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi, Prezidentimizning 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining

faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jumladan, Hisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, shuningdek, ustav fondi (ustav kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari tomonidan ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatini tasdiqlash yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, budget xarajatini tartibga solish bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, budget qonunchiligining buzilishi faktlari to'g'risida xabarot qabul qilish va budget jarayonini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish tartib-taomilini tashkil etish bo'yicha "Openbudget" — "Ochiq budget" portali ishga tushirildi.

Davlat organlarining tizimli va bosqichma-bosqich maqbullashtirilishi hamda ixchamlashtirilishi korrupsiyaga qarshi kurashning yana bir muhim jihati. 2021-yil 3-aprelda Prezidentimiz davlat

hokimiyati va boshqaruvi organlarining shtat birliklari sonini qisqartirish to'g'risidagi qarorni imzoladi. Unga muvofiq, davlat organlari xodimlarining soni 15 foizgacha maqbullashtirildi.

Shuningdek, davlat boshqaruvi tizimida inson omilini kamaytirish maqsadida davlat va jamiyat boshqaruvi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish yo'lga qo'yildi. Ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, litsenziyalash va ruxsat berishga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda tezkorlikni oshirish borasida barcha hududlarda davlat xizmatlari markazi ochildi.

Jamoatchilikning keng ishtirokida korrupsiyaga qarshi murosasiz muhit yaratilmoqda. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojatini ko'rib chiqish tizimi tubdan takomillashtirildi. Xalq qabulxonalari, "ishonch telefoni" hamda har bir vazirlik va davlat idoralarning "ishonch telefoni", "virtual qabulxonasi" tashkil qilindi. Shuningdek, barcha darajadagi davlat idoralari rahbarlarining "sayyor qabul" o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Ustav jamg'armasida davlat ulushi bo'lgan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tegishli korrupsion standart (ISO 37001)ga muvofiq sertifikatlashtirish tartibini o'rnatish bo'yicha vazirlik va idoralarda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat "komplyans-nazorat" tizimini joriy etish ishlari bajarilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimi samaradorligini oshirish, jamiyatda

korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish asosiy maqsadlardan etib belgilandi.

Bu kabi chora-tadbirlar natijasida O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rni yaxshilandi. "Transparency International" korrupsiyani qabul qilish indeksida 5 pog'ona, "Jahon odil sudlov loyihasi" xalqaro nohukumat tashkiloti Huquq ustuvorligi indeksining "korrupsiya mavjud emasligi indikatorida" 2 pog'ona, Jahon Boshqaruv Sifati Indekslarining "korrupsiyani tiyib turish" indikatorida 15 pog'ona, "Trace Matrix" poraxo'rlik matrisasida 1 pog'ona, Hukumat ochiqligi bo'yicha "Open data inventory" reytingida 15 pog'ona ko'tarilishga erishildi.

Oliy Majlis Senatining yaqinda bo'lib o'tgan 57-yalpi majlisida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruza ko'rib chiqildi. Hisobot davrida sohaga oid yangi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, xalqaro standartlar milliy qonunchiligimizga implementatsiya etildi. Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlari va OAVning korrupsiyaga qarshi kurashdagi rolini oshirish, davlat xizmatida halollik standartlarini joriy qilish yo'nalishlarida qator islohotlar amalga oshirilgani ta'kidlandi.

Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar va loyihalarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Unga binoinan normativ-huquqiy hujjatlar va loyihalarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi o'tkazuvchi subyektlar belgilandi. Normativ-huquqiy hujjatlar va loyihalarning korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar ro'yxati kengaytirilgani qayd etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi tasdiqlanib, ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati 35 tadan 40 taga kengaytirilgani, agentlikka "Qayta aloqaning sirli mijoz" tadbirlarini o'tkazish vazifasi yuklatilgani, shuningdek, qonunchilik davlat xizmatchisi xizmat safarlari va boshqa rasmiy tadbirlarda olishi mumkin bo'lgan sovg'aning maksimal qiymati belgilanib, boshqa barcha hollarda davlat xizmatchisiga sovg'a olish taqiqlangan ko'rsatib o'tildi.

Korrupsiya jinoyatining kamayishiga erishilib, 2023-yilda korrupsiyaga oid jinoyat sodir etgan shaxslar soni 2022-yilga nisbatan 12 foiz, jinoyatlar soni esa 11 foiz kamaygani, shu bilan birga, korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida yetkazilgan zarar miqdori ham o'tgan yilga nisbatan 608 milliard so'mga yoki 29 foiz kamaygani ta'kidlandi.

Bugun 117 ta vazirlik va idorada ichki nazorat tuzilmasi ishlayapti. Agentlik tomonidan har chorakda kamida bir marta xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda ichki nazorat tuzilmalari xodimlari uchun malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yilgan. Natijada ular tomonidan o'tkazilgan 4349 ta nazorat tadbirida 342,6 milliard so'm mablag'ni talon-toroj qilish va 928,9 milliard so'mlik moliyaviy qonun buzilishi holatlari aniqlanib, to'plangan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi. Shuningdek, 953,4 milliard so'mlik mablag' noqonuniy sarf etilishining oldi olinib, 372 milliard so'mlik noqonuniy xarajatlarning davlat idoralari hisobiga undirilishi ta'minlandi.

Davlat organlari va tashkilotlari funktsiya va vazifalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi baholanib, Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlarni elektron reystrini shakllantirildi, 92 ta vazirlik va idoraning 7525 ta funktsiyasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi baholanib, ularning 495 tasi "yuqori", 1541 tasi "o'rta" va 5489 tasi "past" toifalarga ajratilgani bayon etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini reyting baholash tizimi doirasida bu yil 95 ta davlat tashkilotining faoliyati, ochiqlik indeksi doirasida 103 ta vazirlik, idora va muassasaning ochiqlik faoliyati baholangan ko'rsatib o'tildi.

Milliy ma'ruzada qonun bilan agentlikka normativ-huquqiy hujjatlar va loyihalarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish vakolati berilganidan so'ng 2023-yilda 307 normativ-huquqiy hujjat loyihasi ekspertizadan o'tkazilib, 174 tasida 413 ta korrupsiyaviy omil aniqlangan bo'lsa, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiquvchilarga yuborilgani qayd etildi.

"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun hamda uning ijrosini samarali tashkil etish yuzasidan qabul qilingan Prezident qarorida aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimni uzluksiz oshirish tizimini yaratish bo'yicha "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasini ishga tushirish belgilangan ta'kidlandi.

Shubhasiz, islohotlar bilan bir qatorda sohada muammolar, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ko'plab vazifalarga ham alohida urg'u berib o'tildi. Xususan, Milliy ma'ruzada korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha qator takliflar ilgari surildi. Xususan, davlatimizning yaqin va o'rta istiqboldagi asosiy yo'nalishini belgilab beruvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiyasini qabul qilish, ichki nazorat tuzilmalari faoliyati mustaqilligini ta'minlash sohasidagi alohida ixtiyoriy tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish, ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ko'laminani yanada kengaytirish kabilar shular jumlasidan.

Yalpi majlisda jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlar, mahalla instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanish, davlat boshqaruvi organlarining quyi tizimlari — hududiy bo'linmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mas'uliyatini kuchaytirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi.

Tomorqachilik

Kuz — hosil yig'ishtiriladigan palla. Ammo Bag'dod tumanidagi "Mehnatobod" mahalla fuqarolar yig'ini tomorqachilari bu faslda ekin-tikin parvarishi bilan mashg'ul bo'ladi. Bu bejiz emas. Mehnatobodliklar tomorqadan yilning to'rt faslida ham daromad oladi. Ayni kunda tomorqalarga ekilgan sarimsoqpiyoz, shivit, kashnich baravj rivojlanmoqda.

Siddiq ota Piriddinov mahallaning tajribali tomorqachilaridan. "Keksalik bekorchilik emas" tamoyiliga amal qiladigan Siddiq ota farzand va nabiralarga bosh bo'lib, tomorqadagi yumushlar bilan andamon. Bu yerda har qarich yer hisob-kitobli. Tartib bilan ekilgan mevali daraxtlar, boshingizga tegay-tegay deb turgan sarxil uzumlardan ko'z quvnaydi. Behi va xurmo shoxlari hosil mo'lgidan egilib qolgan. Kuz ekinida bosh chayqab, mevalarini ko'z-ko'zlaydi. To'rt sotix issiqxonaga ekilgan ko'katlar bozorga chiqarilayapti.

— Bu ikkinchi hosilimiz, — deydi Siddiq ota egat oralab. — Ertaki bodringdan 20 million so'mdan ortiq daromad oldik. Avgust oyining birinchi o'n kunligida ekilgan ko'katlarni sotishni boshladik. Ekindan bo'shagan maydonlarga peshma-pesh to'qsonbosti ekamiz. Bu to'qson kunda tovoqda, degan gap. Bulaming hammasi jamlansa, yillik daromadimiz 40-45 million so'mdan oshadi.



TO'QSON KUNDA TOVOQDA

Bu o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q, albatta. Har bir ishning mashaqqati bor. Tomorqachilikning bu oltin qoidasiga amal qilmay turib biror natijaga erishib bo'lmaydi. Siddiq ota tomorqadan topgan daromadi hisobiga farzandlarini o'qitdi, uyli-joyli qildi, elga dasturxon yozdi, haj safarida bo'ldi.

— Mahallamizda bekor yurgan odam, bo'sh qolgan tomorqa yo'q, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Elmurod Abdurahimov. — Yilning to'rt faslida kaftdek yeridan unumli foydalanayotgan tomorqachilar safi kundan kunga ortib

bormoqda. Bundan besh-olti yil avval tomorqada chorva uchun ozuqa ekinlari yetishtirilgan, xolos. Endi bu sohadagi qarashlar, ishga munosabat o'zgardi. Aholini kambag'allikdan chiqarish, bandligini ta'minlash, farovonligini oshirish yo'lidagi imtiyozlar tomorqadan unumli foydalanish borasidagi ish tajribalarini ommalashtirish, yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatini bermoqda. Keyingi ikki yilda birgina tomorqachilikni rivojlantirishga qaratilgan umumiy qiymati 300 million so'mdan ortiq imtiyozli kredit hisobiga mahallada 15 ta yangi issiqxona

qurildi. Natijada tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan sara mahsulotlarni ichki bozordan tashqari yaqin qo'shni mamlakatlarga eksport qilish imkoniyati tug'ildi. Bundan tashqari, ijtimoiy daftarlari, ijtimoiy himoya reystriga kiritilgan, mehnat migratsiyasidan qaytgan 252 fuqaroga ikki gektardan ortiq unumdor ekin maydoni dehqon xo'jaliklari sifatida ajratib berildi. Asosiy maqsad — mahallamizni ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirish.

To'rt mingdan ortiq aholi umrguzaronlik qilayotgan mahallada kambag'al, ijtimoiy himoyaga muhtojlar kundan kunga kamayib

bormoqda. Yakka-yolg'iz, boquvchisi yo'q, imkoniyati cheklangan oilalarga ijtimoiy himoya xodimi tomonidan manzilli yordam ko'rsatib kelinyapti. Ravon ko'chalar, gaz, elektr va ichimlik suv ta'minoti, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq infratuzilma obyektlari qurishda tashabbuskor tomorqachilarning xizmati katta bo'lmoqda.

Ilhomjon Abduvohidov mehnat migratsiyasidan qaytgan yoshlardan. Unga hokim yordamchisi tavsiyasi bilan 30 million so'm imtiyozli kredit hisobiga 2 sotix issiqxona qurib berildi.

— Issiqxona qurib kam bo'lmadik, — deydi yosh tomorqachi. — Ertabohori bodringdan 15 million so'mdan ortiq daromad oldim. Ayni kunda kuzgi ko'kat sotishni boshladik. Yaqin kunlarda rediska, shivit, ko'kpoyoz ekish taraddudida turibmiz. Bu yilgi daromadimiz hisobidan zamonaviy istitish, tomchilatib sug'orish tizimlari o'rnatishni maqsad qilganmiz. Bu yilning to'rt faslida bir maromda hosil yetishtirish, daromad olish imkoniyatini beradi.

Mahallada tomorqa uchun suv masalasi muammo bo'lib kelgan. Ayniqsa, bu yoz mavsumida juda bilingan. Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan mahallada suv quduqlari qazildi. Natijada og'riqli masalaga ijobiy yechim topildi.

— Bu boradagi tashabbuslar tumanimizdagi 59 ta mahalla fuqarolar yig'inida keng quloq yoymoqda, — deydi Bag'dod tumani fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bosh mutaxassisi Dilshodjon Marasulov. — 1644 gektar tomorqada to'qsonbosti sabzavot ekinlari ekiladi. Bu 520 tonnadan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish imkoniyatini beradi. Shu masqadda "Qorako'l", "Chekmirzaobod", "Bag'dod" mahalla fuqarolar yig'inlarida to'qsonbosti sabzavot ekinlari parvarishlash borasidagi ish tajribalarini boshqa mahallalarda ham ommalashtirishga e'tibor beraymiz.

Tomorqa xonadon xazinasi, kaftdek yerga urug' qadagan kishi uning rohatini ko'radi. Oilada kattalar mehnati va izlanishlariga esh bo'lib ulg'aygan yoshlar mehnat bilan topilgan boylik, farovonlik qadr-qimmatini his qilib yashaydi.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Munosabat



ONA TILIGA HURMAT, AVVALO, OILADAN, MAHALLADAN BOSHLANISHI KERAK



G'ayrat ABDIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi

Inson uchun kindik qoni to'kilgan vatan, uni dunyoga keltirib, voyaga yetkazgan otanasini qanchalik aziz bo'lsa, ona tili ham shunchalik qadrlirdi. Zero, kishi qalbidagi jamiki olijanob fazilatlar, avvalo, ona tilining betakror mo'jizasi, sehri va jozibasi bilan kamolga yetadi.

Tilimiz dunyodagi qadimiy, go'zal va boy tillardan. Uning beqiyos imkoniyatlarini xalqimizning zamonlar sinovidan o'tib kelayotgan maqol va hikmatli so'zlari, betakror iboralar, dostonlarida ko'rish mumkin.

Bu yil o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 35 yil to'ldi. "O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida"gi qonuni o'zbek tilining muhofazasini va



hayotimizning barcha sohasida keng qo'llanishini ta'minladi.

Konstitutsiyamizda ham davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi kabi qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas ramzlar qatori e'zoz va ehtiromga sazovor bo'ldi.

Keyingi yillarda davlat tilining ijtimoiy hayotdagi mavqei yanada mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar bajarildi. Jumladan, Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi tegishli farmoni bilan Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Tuzilma bugun davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi, sohaga oid muammolarni tahlil etib, bu borada yagona davlat siyosati yuritilishini ta'minlamoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich o'tiq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan esa barcha vazirlik va idoralarda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ish yuritiladigan bo'ldi.

150 mingdan ziyod tashqi yozuv davlat tili va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini talablariga muvofiqlashtirildi.

Davlatimiz rahbari 21-oktabr — O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan xalqimizga yo'llagan tabrigida sohada erishilgan natijalarga alohida to'xtalib, 2025-yil 1-yanvardan boshlab umumta'lim maktablarida milliy sertifikatga ega bo'lgan o'zbek tili o'qituvchilariga maoshining 50 foizi miqdorida oylik ustama to'lanishini aytib o'tdi.

Bu, o'z navbatida, yurtimizda faoliyat yuritayotgan yuzlab o'qituvchilarni tom ma'noda harakatga keltirgani, faollikka chorlagani rost. Qolaversa, yangi marralar sari ruhlanitirib, rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Til millatning bebaho, ulkan boyligi bo'lish bilan birga har bir insonning madaniyatini ko'rsatuvchi ko'zgu hamdir. Shunday ekan, har birimiz millatimizning yuragi, ruhi, tom ma'noda joni hisoblangan tilimizni asrab-avaylashimiz, e'zozlashimiz lozim. Buni esa, eng avvalo, oilamizdan, mahallamizdan boshlashimiz maqsadga muvofiq.

Har bir inson o'zligini, o'tmishini, hayotdan maqsadini doimo anglashi, yodida tutishi kerak. Bunda, tabiiyki, inson ongi va aqlining, xususan, ona tili va adabiyotning o'rni beqiyos. Zero, ona tili va adabiyot insoniyat ma'naviyatining ko'zgusi va uni shakllantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar minbari

O'Z OVOZINGDA hayqir, tilim!



Azizbek YUSUPOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Tilning eng o'zgaruvchan sohasi uning leksikasi hisoblanadi. Jamiyat taraqqiy etib borishi bilan tilga yangi so'zlar kirib keladi, bu tabiiy hol. Lekin xorijiy so'zlar kirib kelishiga muayyan o'siqlar qo'yilmasa, belgilangan me'yorlar asosida olinmasa, bu holat til nufuziga jiddiy ta'sir qiladi, — deydi tarjimon Shohruh Usmonov. — Turkiyada til siyosatini Turk tili qurumi tashkiloti yuritadi. Til qabul qilyotgan barcha yangi so'zlar tahlil qilinib, adabiy til me'yorlari bo'yicha tartibga solinadi va kichik kitobcha holda nashr qilinib tarqatiladi. Shu tariqa xorijiy so'zning qo'llanilishida bir xillikka erishiladi. Bizda esa bir so'z bir necha ko'rinishda qo'llaniladi, kim qanday xohlasa, shunday ishlatadi. Bunday holat tildagi anarxiya deyiladi.

Yuqoridagi muammoni bartaraf etish maqsadida Vazirlar Mahkamasida huzurida



Atamalar komissiyasi tashkil qilingan edi. Joriy yil 18-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida huzuridagi Atamalar komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Komissiya zimmasiga ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni rasmiy muomalaga kiritish, o'zbek tiliga kiritilayotgan yangi atamalarni qonunchilik hujjatlariga tatbiq etish va amalda qo'llanish huquqiy muammolarini o'rganish, ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida atamalarimiz qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma'nosi muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash choralari ko'rish kabi bir qancha vazifalar belgilandi. Bundan tashqari, yangi so'z va atamalarni qo'llash sohasida boshqa tillarning qoidalari tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni bartaraf etish choralari ko'radi, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlariga atamashunoslik masalalari bo'yicha ko'rsatmalar beradi, jamoatchilik asosida ish yurituvchi atamalar bo'yicha ishchi guruhlari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Komissiya vazifalarni hali to'liq bajargani yo'q. Agar u bugun faol ishlaydigan tashkilotga aylansa, yuqorida tilga olingan muammolar o'z



Bir paytlar yurtimizda folklorshunoslar, tilshunoslar qishloqqa-qishloq, ovulma-ovul kezib yurgan. O'sha manzil-u go'shalarning tuprog'idek qadimiy keksa bobo-momolar bilan suhbatlashib, xalq tilidan so'z yiqqan. Boshqa ajnabiy tillardan so'zni osongina o'zlashtirib olmag'an. Tilimiz lug'atini o'z xazinamiz bilan boyitish maqsadida yuqoridagi kabi sayohat-tadqiqotlarni bugun ham tashkil etish, tashkil etilgan bo'lsa, uni rivojlantirish o'rinni bo'lar edi deb o'ylayman. Chunki davrlar o'zgaryapti, avlodlar almashyapti, jadallikka mahkum dunyoda tahdidlar ortyapti. Shunday paytda so'zlar, atamalar, iboralarning me'yoridan ortiq kirib kelishi tilimizning yemirilishiga xizmat qilmasligi kerak.

yechimini topadi, buning uchun esa hamma birdek harakat qilishi kerak. Ya'ni "Tilimiz — g'ururimiz", "Ona tilim — iftixorim" kabi balandparvoz gaplar bilan maqtanib yurmasdan, amaliy ishga o'tishimiz shart. Tilimiz yuksalishi, uning o'zidan yuqori mavqedagi til sohasida qolib ketmasligi uchun nafaqat tilshunoslar, balki barcha soha mutaxassislarining birgalikdagi faoliyati zarur.

Amallar niyatga bog'liq

— Deyarli barcha sohadagi odamlar tilimiz yuksalishiga o'z hissasini qo'sha oladi. Masalan, bugun muayyan bir til internet tiliga aylinishi uning darajasini bir necha baravar oshiradi, — deydi Guliston davlat universiteti magistranti Eldor Diyorov. — Kompyuter lingvistikasi degan fan bor. Ushbu fanda "kompyuter tilni tanishi" degan tushuncha mavjud. Kompyuter tilni "tanishi" uchun u bu tilni "bilishi" zarur. Matndagi xatolarni tuzatish, matni qayta ishlashi, tarjima qilishi, so'zlarga izoh bera olishi, tilni o'rgatishi, matni bir alifbodan ikkinchi alifboga o'tkazib berishi, til ifodalarni tasniflashi, tartiblashi, biror tilda gapirishi, yozishi uning tilni tanishi asosida amalga oshiriladi. Demak, sun'iy intellekt muayyan tilni "tanisa", o'sha til asosida ishlaydi. Mazkur masalaga esa hukumat tomonidan jiddiy e'tibor qaratilyapti, bu o'rinda vikipediya elektron ensiklopediyasida o'zbekcha materiallarning bir necha o'n, balki yuz mingga ko'payganini misol qilsa bo'ladi.

Chindan 2022-yilda o'zbekcha vikipediya maqolalar soni tez sur'atda o'sa boshladi. Buning asosiy sababchisi "WikiStipendiya" marafoni bo'ldi, desak yanqilshmaymiz. Marafon o'zbekcha vikipediyaadagi kontentni yuksalishga qaratilgan bo'lib, Yoshlar ishleri agentligi tomonidan O'zbekiston Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda



o'zbek tilida so'zlashuvchi vikimechiachilar foydalanuvchi guruhi bilan hamkorlikda tashkilotlashtirildi.

Marafonga 2022-yil 20-mayda start berilganidan keyin vikipediyaning o'zbek tilidagi bo'limida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ularning barchasi ham faqat "WikiStipendiya" ta'sirida bo'lyapti, deb ta'kidlay olmasak-da, o'zbekcha vikipediyaadagi yirik o'zgarishlar aynan marafon boshlanganidan so'ng yuz bergani rad qilib bo'lmas faktidir.

2022-yilning 20-maydan 20-dekabr gacha o'zbekcha vikipediyaadagi maqolalar soni 76 ming 657 taga oshib, 217 mingdan ziyod bo'ldi. Jami tahrirlar soni 3 million 504 ming 571 tani tashkil etdi.

Til haqidagi qonun ijrosining faol imkoniyati va unga zid xudbin kayfiyat

— 1989-yilda davlat tili maqomining amaliy mavqega intilishi qatag'on yillari qaror topgan adolatsiz lisoniy vaziyatni saqlab qolish yo'lidagi harakatlarga jon bag'ishlagandi. O'sha paytdagi markaziy ro'znoma va oynomalarda chop etilyotgan xabarlarini, kuyinchaklik bilan yozilyotgan mulohazalarini o'qib, bunga ishonch hosil qilish qiyin emas, — deydi shoir va tarjimon Alisher Sabriy. — Afsuski, bugun ona tili maqomining mohiyatini idrok etish nari tursin, bu xususda o'ylashga, mulohaza yuritishga e'tiborsizlik qilyotgan yoki buni mutlaqo istamayotgan millatdoshlarimiz anchagina. Til haqidagi qonun ijrosining faol imkoniyati va unga zid xudbin kayfiyat bugungi kunda bir-biriga ro'baro' keldi.

Mustaqillikdan oldingi davrda "til siyosati" atamasining o'zi deyarli iste'moldan chiqarilib, tilshunos olim Ibrali Toshiyev



ta'biri bilan aytganda, "milliy tillar qurilishi", "tillarni rejalashtirish" yoki "tillar madaniyatini takomillashtirish" singari tumtaroq va chuqumal ifodalar bilan almashirilgan edi. Shukrki, o'zbek tili davlat tili maqomiga erishganiga 35 yil bo'ldi. Qonun ijrosining izchil va tadjiriy tusda borishi o'zimizning o'z tilimizga, uning martabasiga muvofiq ish tutishimizga bog'liq. Bu, eng avvalo, o'zbek tilini o'z tilim deb bilgan barcha kishilardan davlat tili maqomi mohiyatini chuqur tushunib olishdan hamda uni shu maqom-mavqeda ishlatishga erishishdan iborat. Ona tilining haqiqiy mavqei, madaniy nutq amaliyoti, demak, ularning imkoniyati va istiqboli ham odamlarning mehru muhabbatidan quvvat olib, shu tuyg'ular bag'rida kamol topadi.

Ayni paytda bizda ona tilimizdan faxrlanish tuyg'usi o'tmaslashib qolganini ham e'tirof etish lozim. O'z tiliga loqayd, bepisand kishilarda bu ezgu tuyg'uning o'tkirlashuviga yordam beradigan til ta'limi va tashviqini kuchaytirish kerak. Shu jihatdan o'zbek tilshunosi aniq ishlarni, faol targ'ibotni amalga oshirishi, til tanqidini rivojlantirishda davom etishi muhim. Matbuot yordamida odamlarga hozirgi davr til siyosati masalalari tushuntirilsa, bu sohada yuzaga kelayotgan ayrim yaltiroq ifodayu shiorlar mohiyatini fahmlashda ularga ko'maklashilsa chakki bo'lmaydi.

Haqiqatan, hozirgi davrda til siyosati va til muhofazasi muammolariga nazar tashlash va ulardan ogoh bo'lish muhim amaliy ahmiyatga molik. Bu kishilarning ona tili maqomi va istiqboliga doir tasavvuri-yu mafkurasini shakllantirishga, tilimiz taraqqiyoti uchun zarur ruhiy, lisoniy va axloqiy omilni, ishchan aloqa muhitini qaror toptirishga yordam berishi shubhasiz.

Biz har kuni davlat bilan "gaplashamiz"

Siyosat va uning institutlari jamiyatdagi til imkoniyatlarisiz o'z maqsadlarini amalga oshirolmaydi. Tilning o'zi ham siyosatning u yoki bu tarzdagi ta'siriga uchraydi. Til davlat tomonidan alohida siyosat va rejalashtirish obyektiga aylaniy boradi.

Shuning uchun insonning siyosiy madaniyatini uning lisoniy olamida muhim

o'rin egallaydi. Ya'ni uning siyosiy madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'zining bu boradagi fikr-mulohazalarini ravon va mantiqiy izchillikka yetkazib beradi. Bu siyosiy g'oyalar subyektning o'z fikrini aniq tarzda yetkazib berish maqsadida til strukturasi, ayniqsa, uning lisoniy qurilishidagi o'zgarishlardan samarali foydalana olishida namoyon bo'ladi.

— Biz davlatdan har kuni turli xabarlar olamiz. Ularning ko'rinishi, yetkazish usuli har xil. Bular bizga nutqlar, rasmiy bayonotlar, turli ko'rsatuvlar, sharhlar, OAV, ijtimoiy tarmoqlar orqali yetib boradi. Masalan, qonun hujjatlari ham davlatning biz bilan muloqoti. Unda belgilangan har bir norma davlatning "o'z tilidan" bizga aytayotgan "so'zi", — deydi iqtisodchi Farrux Hasanov. — Kimdir



unga "javob qaytaradi", kimdir shunchaki qabul qiladi. Lekin har ikki holatda ham biz to'liq muloqot ishtirokchisiga aylanamiz. Shu sababli siyosatga qiziqmayman, deydiganlar ham bir kunda bir necha marotaba davlat bilan "gaplashadi".

Ayni vaqtda davom etayotgan saylov jarayonlarida nomzodlar fikrlari, bo'lg'usi rejalarini, aniq va tuzilgan maqsadini qay yo'sinda xalqqa yetkazmoqda? Albatta, til, so'z orqali. Shunday ekan, har bir yangilik, o'zgarishlarga qaysidir ma'noda o'z munosabatimizni bildirib borishimiz davlat bilan muloqotimizni mustahkamlaydi. Axir faqat eshituvchi suhbatdosh bo'lish ham kommunikatsiyani "o'ldiradi".

Tilshunoslikda davlatning xalq bilan muloqotini o'rganadigan yo'nalish kommunikativ strategiya va taktika doirasida tahlil qilinadi. Siyosatda kommunikativ strategiya butun boshli muloqotning ipidan iganisigacha, natijasigacha rejalashtirishdir. Taktika esa shu rejani amalga oshirish usuli.

Xulosa qilib aytganda, siz istaysizmi-yo'qmi, gapirasizmi yoki gapirmaysizmi, siyosat "gapiraveradi". Shuning uchun o'rtadagi muloqot tili, ya'ni o'zbek tilimiz chaklik mustahkam va serjilo bo'lsa, ham xalqqa, ham davlatga foyda.

Buzg'uvchi emas, saqlovchilardan bo'laylik

Ochig'i, ona tiliga munosabat xususida vazminlik mezonidan bir parda balandroq ruhdan so'z yuritish ayni kunlarda juda zarur. Ona tiling bilan faxrlanish hissi, iftixor tuyg'usidan baralla so'zlash lozim. Uni e'zozlashdan, ardoqlashdan charchamaslik zarur. "Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz"larning e'tiborini tortish, loqaydlarni karaxtlik uyqusidan uyg'otish uchun shunday qilish kerak. Illo, beparvo'lik bilan bepisandlikning orasi bir qadam, xolos.

Bilingan, fahmlangan narsa tilda, tildagisi esa bilimda zohir bo'ladi. Boshqacha aytganda, biz o'ylaganda, gapirgandagina til ishlaydi, uni ishlatish malakasi ham orta boradi. Shaxmat o'ynamagan shatranjni bilmaydi. Shatranjchining mahorati o'z yand o'yinga orta borganidagi, biz ham tildan qancha ko'p foydalansak, uni ishlatishga shuncha mohir bo'lamiz, uning qoidalarni ko'proq bila boramiz.

Xullas, har bir inson o'zligini, o'tmishini, hayotdan maqsadini doimo anglashi, yodida tutishi kerak. Bunda, tabiiyki, inson ongi va aqlining, xususan, ona tili va adabiyotning o'rni beqiyos. Zero, ona tili va adabiyot insoniyat ma'naviyatining ko'zgusi va uni shakllantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Xuddi jamiyatda har bir oilaning ravnaqi ota va onaga bog'liq bo'lganidek, insoniyat ongining ravnaqi ham ona tili va adabiyotga bog'liq. Shunday ekan, barchaga tilni buzg'uvchilar, ayiruvchilar, yo'qotuvchilardan emas, aksincha, uni saqlovchilar, boytuvchilar, uyushtiruvchilardan bo'lishini tilab qolaman.

O'TTIZ BESH YILLIK O'ZLIK MAQOMI

bizni yagona xalq sifatida birlashtirib keladi

Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, bugun dunyoda texnik taraqqiyot jadal sur'atda o'sib bormoqda. Bunday vaziyatda madaniyat, o'zlikni va tilni saqlab qolish oson kechmaydi. Shu ma'noda, o'zbek tilini taraqqiy ettirishga qaratilgan sa'y-harakatlar shu til vakili bo'lgan barcha insonlarni quvontiradi.

Poytaxtimizdagi "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyidagi tantanali ma'rifiy tadbir esa ana shu ko'tarinki kayfiyatga hamohang bo'ldi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bu yilgi bayram tadbiri dasturi rang-barangligi, g'oyat samimiy sahna ko'rinishlari va hayotiy, kundalik turmushimizga mutanosibli bilan ajralib turdi.

Til bayramida shunday namoyishlar bo'ldi, ziyoli sifatida har bir lavhadan, sahna ko'rinishidan, har bir qo'shiqdan ta'sirlandim, — deydi filologiya fanlari doktori Bahodir Karim. — Bayram tadbiri avvalida namoyish etilgan lavhalarni tomosha qilar ekanman, davlatimiz rahbarining ilk bora BMTda o'zbek tilida nutq so'zlagani, yana ko'plab xalqaro anjumanlarda el va til birligi to'g'risida jon kuydirib ma'ruza qilgani haqidagi tarixiy lahzalarni ko'rib, biz avvalgidan-da ko'proq intilishimiz, izlanishimiz kerakligini angladim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yaqinda Turkmanistonda bo'lib o'tgan xalqaro anjumanda ham Maxtumquli va uning noyob merosi haqida so'z yuritir ekan, har bir xalqning dunyoda mustahkam o'rinni tutishida ziyolilarning aytgan so'zi, hushyorligi, sobitqadamligi, ziyakligi muhim ekanini bejiz ta'kidlamadi. Shunday ekan, biz oldimizda turgan vazifalarni yanada chuqurroq anglashga harakat qilishimiz kerak. O'zbek tili targ'iboti uchun zararcha hissa qo'shayotgan qay bir yurt vakili borki, men uni yaxshi ko'raman, qadrlayman. Shu bois, xorijlik do'stlarimizning



Shukuh

dil izhorlari ham menga ma'qul bo'ldi. Konsert dasturida esa maqomchilar ansamblining ona tilimizni tarannum etuvchi yangi qo'shiqlar yaratgani va bizga taqdim etganidan xursand bo'ldim.

Darhaqiqat, tadbirida ishi, o'qishi sabab yurtimizda yashayotgan xorijlik do'stlarimizning chiqishi yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi. Shu o'rinda kichik mulohaza. Ko'pincha davlat tilini ommalashtirish, uning mavqeini oshirish borasida turli fikrlarni bildiramiz. Bir guruh xorijliklar O'zbekistonga kelib, davlat tilini o'z ixtiyori bilan o'rganayotganining sababi nimada? Nazarimda, ehtiyoj. Bugun mamlakatimiz dunyoga ochildi. Ishbilarmonlar, sayohatkorlar, madaniyat va tarix ixlosmandlari yurtimizga kelib, faoliyat yuritishi, ilmiy izlanishlar qilishiga keng imkoniyat yaratilgan. Yangi O'zbekistondagi bunday imkoniyatdan

to'la foydalanish esa xorijliklarga davlat tilini o'rganish ehtiyojini tug'diradi. Demak, mamlakatning iqtisodiy o'sishi jarayonida o'z-o'zidan boshqa jabhalar, xususan, til va madaniyat ham ravnaq topib boradi. Tadbirida so'z olganlar ana shunday islohotlarning dastlabki mevalari, desak mubolag'a bo'lmas. Bunga quyida ushbu do'stlarimizning fikrlarini o'qib, o'zingiz ham amin bo'lasiz, degan umiddamiz.



O'ZBEK TILI – DAVLAT TILIDA GAPIRISH BURCHIMIZDIR

Lim Jong MYUNG, magistrant (Janubiy Koreya):

— Meni O'zbekistonda Mahmud deb chaqirishadi. O'zbek madaniyatini, qo'shiqlarini, ayniqsa, maqomni yaxshi ko'raman. Shu kunlarda o'zbekcha ismimga juda o'rganib qolibman. Bu mubolag'a emas. Aksincha, samimiy do'stlarimning "tekshiruv"dan o'tgan ayni haqiqat. Gap shundaki, bir kuni do'stlarim o'zimga bildirmay ortimdan chaqirib, qaysi ism aytilganida tezroq javob berishimni sinab ko'ribdi. Buni qarangki, koreyscha ismimni aytib chaqirganida 3 soniyadan so'ng ortimga qarabman. O'zbekcha ismimni aytilishida esa o'sha ondayoq ularga javob beribman.

Ayni paytda o'zbek tili bo'yicha magistraturaga o'qishga kirdim. Chunki o'zbek tilini yanada mukammal o'rganmoqchiman. Bu davlat tili o'zbek tili bo'lgan mamlakatingizda fikrimni erkin ifoda etib yashashimda juda muhim. Men O'zbekistonda yashayotgan barcha millat vakillari davlat tilini bilishini ularning tabiiy burchi deb bilaman.

O'zbekistonga birinchi marta Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) orqali koreys tilini o'rganish uchun kelganman. O'shanda yurtingiz madaniyati, tili va odamlarining saxiyligi, sadoqati, mehmondo'stligidan nihoyatda



hayratlangandim. Bunday odamlarga hamisha o'zingga ishongandek ishonish mumkin. Shu bois, o'zbek do'stlarim bilan yanada yaqinroq bo'lib, oldimga qo'ygan maqsadlarga yetishda ularga suyuksan deymen.

O'tgan vaqt ichida o'zbek tili men uchun faqat bilim emas, balki yurakdan sevadigan tilga aylandi. Kelgusida til borasidagi bilimlarimni mustahkamlab, o'zbekcha erkin suhbatlashadigan do'stingizga aylanaman. Dunyodagi hamma xorijliklarni o'zbek tilini sevishga va uni hurmat qilishga undayman.

NODIRABEGIM G'AZALLARINI TUSHUNA BOSHLADIM

Bay YANG, doktorant (Xitoy):

— O'zbek do'stlarim meni Nodira, deb chaqiradi. Hozir Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetida qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha birinchi kurs doktorantiman.

O'tgan yili sentabrda Toshkentga kelgan bo'lsam-da, o'zbek tili bilan tanishuvim Xitoyda boshlangan. 2018-yilda men bu go'zal tili birinchi marta eshitdim va o'sha ondayoq seviz qoldim. Birinchi ustozim Dilfuza opa menga Nodira ismini bergandi. O'shanda ustozim Nodirabegim ismi shoir haqida ham gapirgandi. Avvaliga uning she'rlari va g'azallarini unchalik tushunmadim. Hozir esa shoiraning g'azallarini bemalol tushunaman va o'z ismim bilan faxrlanaman. Shoiraning bir g'azalida "Maqsad na edi jahona kelding, Kayfiyatningi bayon etib ket", degan so'zlar bor. Men kayfiyatimni o'zbek, Nodirabegim tilida bayon eta olayotganimdan g'ururlanaman. Hatto bu g'azalni onamga ham tez-tez o'qib beraman.

Albatta, o'zbek va xitoy tillari bir-biridan, ayniqsa, talaffuz va grammatikada juda farq qiladi. Ammo bu ularni birdek yaxshi ko'rishimga to'sqinlik qilolmaydi. Masalan, Xitoy tilida o'zbek tilidagi "r", "q", "o", "v" va "g" kabi tovushlar mavjud emas. Shu bois, men



o'zbek tilidagi bu tovushlarni unchalik talaffuz qila olmayman va ko'proq mashq qilishga urinaman.

Dissertatsiyamni himoya qilganimdan so'ng Xitoyga qaytib, universitetda o'zbek tili o'qituvchisi bo'lib ishlamoqchiman. Xitoylik talabalarga o'zbek tili mutaxasssliqli bo'yicha dars berish niyatidaman. Shu orqali ularni o'zbek tili va madaniyati bilan yaqindan tanishtirish, ikki mamlakat o'rtasida do'stlik aloqalarini mustahkamlashga hissa qo'shaman. Menimcha, til nafaqat aloqa vositasi, balki boshqa mamlakat madaniyatini tushunish uchun oyna hamdir.

AZALDAN DO'ST MAMLAKAT FARZANDLARIMIZ

AHMADXON, quruvchi (Hindiston):

— Uch yildan buyon O'zbekistonda yashayman. O'zbekiston bilan Hindiston tarixdan do'st mamlakatlar ekanidan g'ururlanaman. Hindistonda katta davlat yurtini ko'rish bizga sharaftir. Boburiylar sulolasi bobosiga munosib insonlar bo'lib, ular ibratli umri davomida bunyodkorlik ishlari bilan Hindistonni obod qilgan.

Bobur Mirzoning g'azallarini juda seviz o'qiyman. Shoir va sarkarda bir umr sog'inib, o'z she'rlarida ta'rifi qanday qanday ekan, deb juda qiziqar edim. Yurtingizni ko'rib, shu yerda yashab, Bobur Mirzo bu o'lkaga bejiz talpinmagan ekan, dedim.

Hozir Toshkentda qurilish sohasida ishlayman. O'zbekistonning bir necha shaharlariga sayohat qilib, me'morlikning ko'hna an'analari bilan hayratlandim. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi minoralar va binolar tarhi meni qiziqtirib qo'ydi.



Kelajakda ham shu go'zal yurtida ishlab, yashab qolish niyatim bor. Shuning uchun o'zbek tilini astoydil o'rganishga kirishdim. Aslida, o'zbek va hind tillari bir-biriga o'xshash, hatto ayrim so'zlari bir xil: kitab, dunya, qog'oz...

Shuning uchun o'zbek tilini o'rganish menga qiyin bo'lmadi.

Kelajakda ham shu go'zal yurtida ishlab, yashab qolish niyatim bor. Shuning uchun o'zbek tilini astoydil o'rganishga kirishdim. Aslida, o'zbek va hind tillari bir-biriga o'xshash, hatto ayrim so'zlari bir xil: kitab, dunya, qog'oz...

ASOSIY MAQSADIM – O'ZBEK TILINI YAXSHI BILISH



Saleb DELAKRUZ, fizioterapevt (Yangi Zelandiya):

— Ota-onam filippinlik. Shuning uchunmi, yuzim osiyoliklarmimga o'xshaydi. Toshkentda meni o'zbek deb o'ylashadi. Chet ellik do'stlarim bilan birga bo'lganimda mendan "gidmisi?" deb so'rashadi. Ba'zida hazillashib, "Ha, mening ismim Sodiqjon. Surxondaryodanman", deb aytaman. Chindan

shunday bo'lib qolganida ham bundan faxrlangan bo'lardim. Chunki O'zbekiston, uning madaniyati, ovqatlari menga juda yoqdi. O'zbeklar esa mehribon, do'stona va har doim yordam berishga tayyor xalq.

O'zbekiston haqida dastlab bir muddat shu yerda yashagan do'stimdan eshitganman. U menga ham bu yerga kelishimni maslahat bergan. Shu bois, o'tgan yili Toshkentga keldim. Barchasi xuddi do'stim ta'rifi qanday ekanini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Hozir ta'lim oloyotganim Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetida ham hamma sharoitlar yetarli. Ustozlarimiz juda ochiqko'ngil va mehribon. Ulardan o'zbek tilini qunt bilan o'rganayapman.

Xudo xohlasa, kelajakda O'zbekistonda ishlab, menga til o'rgatgan o'qituvchilarim ishonchini oqlayman. Ehtimol, fizioterapevt bo'laman. Xayolan o'zimni shu sohada ko'rib, bemorlar bilan xuddi o'zbekistondakidagi gaplashishdan quvonaman. Nima bo'lganda ham asosiy maqsadim — o'zbek tilini yaxshi bilish. Bu xalqning urf-odatlarini haqida chuqurroq o'rganish, go'zal fazilatlarini o'zlashtirish.

ONA TILINGIZNI BIZ BILAN BAHAM KO'RGANINGIZ UCHUN MINNATDORMIZ

EULOGIO, tadbirkor (AQSH):

— Biznes tufayli bir yil oldin bu yerga oilaviy ko'chib keldik. Hozir Toshkentda, Mirzo Ulug'bek tumanida yashaymiz.

O'zbekistonga birinchi kelganimda o'zbek tilida birorta ham so'z bilmasdim. Birinchi marta Farg'ona viloyatiga borganimda ancha qiyndim. U yerdagi bozorlarga kirganimda hunarmandlarning ko'plab go'zal ishlaridan hayratlandim. Mazali mevalarni tatib ko'rdim. Menimcha, eng yaxshi mevalar O'zbekistonda. Lekin hech narsa sotib ololmadim. Ko'p mehmondo'st odamlar bilan tanishdim-u, suhbatdosh bo'lolmadim. Nimaga? Chunki men o'zbek tilini bilmasdim.

Shundan so'ng o'zbek tilini o'rganishni, samimiy, mehmondo'st o'zbek do'stlarimiz bilan dildan gaplashishni niyat qildim.



Bir o'zimgina emas, oilamiz bilan o'zbek tilini astoydil o'rganayapmiz. Ko'pincha Chorsu bozoriga boramiz va o'zbek tilida savdolashishga harakat qilamiz. Sotuvchilar

bilan o'zbek tilida bir oz so'zlashib, sabzavotlar, mevalar sotib olamiz.

Farzandlarimiz maktabda o'zbek sinfida o'qiyapti. Menimcha, ular o'zbek tilini mendan va ayolimdan tezroq va puxta o'rganayapti. Ularga uy vazifalarini bajarishda yordam berish orqali o'zimiz ham o'zbek tilini o'rganayapmiz. Birinchi sinfda o'qiydigan kichik o'g'limiz o'zbek tili bayrami kuni uchun bir she'rni yod olishi kerak edi. U bilan baravar o'zimiz ham shu she'rni yodladik:

Ona tilim, bobo tilim, Sevar seni yurt-u elim. Ona tilim, koni ilm. Sen-la olay chuqur bilim.

5-sinfda o'qiyotgan o'g'limiz ustozlarini, ayniqsa, Sardor ismli o'qituvchisini juda yaxshi ko'radi. Shuningdek, Jahongir, Mehriddin, Ibrohim, Islom, Bilol va Barhayot kabi do'stlari bilan juda ahil va yaqin bo'lib qolganidan xursandligini aytadi. Buni eshitganimiz sari O'zbekistonga, uning mehmondo'st xalqiga hurmatimiz yanada oshib boradi. Fursatdan foydalanib, oilamiz nomidan barcha o'zbekistonliklarga rahmat deymiz. O'z urf-odatlarimiz, tariximiz, madaniyatimiz, do'stligimiz va o'z ona tilingizni biz bilan baham ko'rganingiz uchun behad minnatdormiz.

Sahifani "Yangi O'zbekiston" muxbirlari Muxtasar TOJIMATOVA, Munajat MO'MINOVA tayyorladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3694. 41218 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov Musahhirlar: Asliddin Abdurazaqov Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzili: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy